

ISSN : 3030-3974

# MAKON VA ZAMON

Пространство и время  
Space and time

№3  
2025

# MAKON VA ZAMON

**ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,  
ma'naviy-ma'rifiy jurnal**

**2025/3 (№5)**

**M u a s s i l a r:** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti  
va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*  
M.Abdullayeva, *s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O'.Abilov, p.f.d., professor*  
R.Choriyev, *p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,*  
*i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d. – A.Ravshanov.*

**ISSN 3030-3974**

**Bosh muharrir – tahririyat rahbari:**

*Qiyom Nazarov – f.f.d., professor*

**Nashrga tayyorlovchilar:**

M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

**Tahririyat manzili:** Qori Niyoziy ko'chasi, 39,  
Toshkent shahri, 100000,

Bichimi 60x84 Ofset qog'ozi. “Times” garniturasini.

Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog'i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

## MUNDARIJA:

<b>Бош муҳаррир минбари</b>	Шарқ ва Ғарб фалсафасининг узвий алоқадорлиги.....	4
<b>N.Kuvvatov</b>	Umuminsoniy demokratik prinsiplarning qaror topishi – yangi O‘zbekistonni barpo etish omili.....	8
<b>X.Nishonov</b>	Oliy ta’lim muassasalarida korporativ madaniyatni shakllantirishda axloqiy tarbiyaning o‘rni.....	12
<b>B.Ahmedov</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat tuyg‘usining o‘ziga xos xususiyatlari.....	15
<b>И.Насриев</b>	Мерос ҳақидаги шартнома институтининг атрибутлари ва устивор тамойиллари.....	20
<b>Д.Куанишова</b>	Марказий Осиё ижтимоий-фалсафий тафаккурида аёллар ҳақидаги қарашлар.....	25
<b>S.Xoldarov</b>	Beruniyning ijtimoiy-falsafiy va antropologik qarashlari.....	29
<b>М.Парпиев</b>	Европа уйғониш даврида фалсафий ва илмий билимлар динамикаси.....	32
<b>N.Zaynobidinova</b>	Jahon mamlakatlari tajribasida diniy va dunyoviy qarashlarning uyg‘unligi.....	36
<b>У.Мавлянов</b>	Али Сафийнинг билиш тўғрисидаги қарашлари.....	40
<b>М.Умарова</b>	Бухоро Амир Шоҳмурод ҳукмронлиги даврида маданий ва маънавий ҳаёт.....	45
<b>I.Boymirzayev</b>	Nizak Tarxon I va Nizak Tarxon II ning hayoti va qo‘zg‘olonlari.....	49
<b>D.Xaydarova</b>	Jadidchilikning ijtimoiy-ma’rifiy yo‘nalishlarining proksiologik xususiyatlari.....	53
<b>Д.Мамажонов</b>	XX асрдаги ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнларнинг театр ва кино равнақиға таъсири.....	57
<b>Sh.Elmuratova</b>	Sharof Rashidov xotirasini abadiylashtirish ishlarida muzeylarining tutgan o‘rni.....	60
<b>O.Abduvaliyev</b>	Ijtimoiy muammolarni hal etishda yoshlarning o‘rni.....	63
<b>Г.Нишонбоева</b>	Маданий тарбия – ёшлар камолотининг пойдевори.....	67
<b>X.Xolmirzaev</b>	Sun’iy intellekt va ijtimoiy tenglik dinamikasi.....	70
<b>D.O‘rinboev</b>	Janubiy Koreyaning strategema nazariyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	74
<b>B.Toshboyev</b>	Milliy xarakter va axloq uyg‘un rivojlanishida zamon va makon dialektikasi.....	77
<b>U.Muxtarov</b>	Ishsizlikni kamaytirishda mehnat bozorining asosiy xususiyatlari....	81
<b>D.Ergashev</b>		
<b>O.Ortiqov</b>	Ijtimoiy fikr taraqqiyotida falsafiy merosning o‘rni va ahamiyati.....	85
<b>О.Межевникова</b>	Когнитивные изменения и адаптация сознания в цифровом мире.....	88
<b>A.Sodiqov</b>	Ziyoli mafkurasi – sog‘lom jamiyat asosi.....	91
<b>Q.Yunisov</b>	Globalashuvning mohiyati va shakllanish tarixi.....	95

<b>A.Oltiboyev</b>	O‘zbekiston va Qozog‘iston respublikalari hamkorligining markaziy osiyo mintaqasi rivojlanishidagi o‘rni va roli.....	99
<b>Т.Иванов</b>	История торгового дома «братья Вадьяевы».....	102
<b>M.Raximov</b>	Texnologik tafakkur va insoniylik mohiyati: raqamli zamon falsafasi.....	106
<b>B.Uzokov</b>	Yoshlar ma’naviyatiga qaratilgan tahdidlarga qarshi kurashda mahallaning o‘rni va roli.....	109
<b>З.Тилавова</b>	Янги Ўзбекистонинг маданий ҳаёт динамикаси.....	112
<b>A.Hamdamova</b>	Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini bartaraf etish uslub va usullari.....	115
<b>D.Iskandarova</b>	Talaba yoshlarning bugungi kundagi ruhiy holati.....	118
<b>G.Azamatova</b>	Mustaqillik yillari O‘zbekistonda odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalari tahlili.....	121
<b>E.Jabborov</b>	Oila va jamiyat ta’sirida yoshlarning infantilizatsiya jarayoni shakllanishi.....	125
<b>O.G‘ulomjonov</b>	Oilaviy munosabatlarning ijtimoiy institutsional xususiyatlari.....	128
<b>A.G‘aybullayev</b>	O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida manfaatli hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi.....	131
<b>X.Xidirov</b>	Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash muammolari.....	134
<b>S.Qaxxorov</b>	O‘zbekiston yoshlarida harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	137
<b>I.Isaqov</b>	Moslashuv sharoitida bolaning oilaga bo‘lgan huquqi.....	141
<b>R.G‘ulomova</b>	Orolbo‘yi ekologiyasini sog‘lomlashtirish omillari.....	145
<b>A.Usnatdinov</b>	Ijtimoiy faollik jamiyat rivojlanishining muhim sharti sifatida.....	148
<b>A.Hamdamov</b>	O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasining rivojlanish bosqichlari va tarixi.....	152
<b>V.Arziyeva</b>	Ta’lim jarayonida buxgalteriya hisobi va audit sohasini o‘qitishning kompetensiyaviy yondashuvlari.....	155
<b>A.Saimbetov</b>	Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi, harbiy siyosat va xalqaro munosabatlar: tarixiy-tahliliy yondashuv.....	158
<b>R.Karamanova</b>		
<b>Z.Saatova</b>	Genetik manipulyatsiyalash jarayonida inson tabiati va identifikatsiyasi.....	162
<b>M.Нишанов</b>	Аҳолини давлат томонидан ижтимоий ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асослари.....	166

## O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA HARBIY MADANIYAT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Siyovush Qaxxorov

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston yoshlarida harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Madaniyat, harbiy madaniyat, harbiy pedagogika, ko‘nikma, malaka va mahorat, vatanparvarlik, harbiy burch.

**Аннотация:** В данной статье анализируются педагогические основы формирования компетенций военной культуры у молодежи Узбекистана.

**Ключевые слова:** Культура, военная культура, военная педагогика, навыки, компетентность и мастерство, патриотизм, военный долг.

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical foundations of forming military culture competencies in the youth of Uzbekistan.

**Key words:** Culture, military culture, military pedagogy, skills, competence and skill, patriotism, military duty.

**Kirish.** Harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari turli sohalaridagi tajribalar va nazariy yondashuvlarga asoslanadi. Bu maqsadga erishish uchun, pedagogika va tarbiya sohasida bir qator asosiy prinsiplar, metodlar va usullar mavjud. Manba va lug‘atlarda “harbiy madaniyat, avvalo, askar va harbiy xodimlar uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat, texnika va kasbiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutsa-da, aslida bu nafaqat harbiylarda balki, har fuqaroda, ayniqsa yoshlarda shakllantirishi lozim bo‘lgan umumkompetensiyalarning muhim bir qismi sifatida bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil pozitsiyaga asoslangan kompetensiyalar majmui sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi” [1].

Harbiy madaniyat kompetensiyalari haqida fikr ketar ekan avvalo, harbiy madaniyat tushunchasini o‘zini bilish va undan keyingi bosqichda harbiy madaniyat kompetensiyalari tushunchasining mazmun mohiyatini va tarkibiy tuzilmasini to‘g‘ri tushunish kerak bo‘ladi. Vaholanki, harbiy madaniyat bu jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida, umummadaniyat mazmunidagi salohiyatni, ma‘rifatni, ilmga asoslangan bilimni va albatta tarbiyaga asoslangan qadriyatlarni, insoniy fazilatlar va mo‘ljallarni kompleks shakli bo‘lib, jamiyatda sohaga oid ijodiy kuch va qobiliyatlar, intellektual salohiyatning muayyan darajasini tashkil etadi. “Harbiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyati emas, balki uning tarkibiy qismi sifatida jamiyat, davlat va shaxs manfaatlarini himoya qilishning alohida turi, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, me‘yorlar majmui bo‘lib, harbiy jamoada yaratilgan va ishlaydigan rasmiy hamda norasmiy tartib va qoidalarning yig‘indisi, sohani tashkil etish usuli”[3.14.] hisoblanadi. Sohaga oid madaniyatning tarkibiy qismi sifatida harbiy madaniyat o‘zining tarkibiy qismlari, rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita aks ettiradi. Harbiy madaniyatni shakllantiruvchi komponentlar mujassamlashib muayyan kompetentlikni tashkil qiladi. Vaholanki, kompetensiyalarning ham o‘ziga xos tur va shakllari bo‘lib sohalar kesimida tadqiq qilishda bir qator ilmiy nazar yondashuvlar tahlilini amalga oshirishni taqozo qiladi. Chunki kompetensiyalar bu kompetentlikning soha yoki ixtisoslikka oid amalda o‘zlashtirilgan bir qismi bo‘lib, aniq faoliyat turlarini bajarish uchun kerakli bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqillik va albatta kasbiy fazilat va salohiyat darajasining yig‘indisini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan umumiy madaniyatning bir qismi bo‘lgan harbiy madaniyat kompetensiyalari yoshlarning jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligini, tashkilotchilik va mas‘uliyatni, shaxsiy va jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ilmiy bilishning dialektik, sotsiologik tadqiqot, kontent-tahlil, analiz va sintez, tarixiylik hamda mantiqiylik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Harbiy madaniyat kompetensiyalari ham pedagogik prinsiplar interaktivlik, tarixiylik, madaniy kontekstlilik, jamoaviylik, liderlik va boshqalarga asoslanadi. Hususan, tarixiy va madaniy kontekstga ko‘ra harbiy madaniyat turli tarixiy va madaniy mezonlarga asoslanadi, shu bois pedagogik tizimda harbiy madaniyatga oid tarixiy bilimlarni va mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi muhim hisoblanadi.

**Tahlillar va natijalar.** Interaktivlik tamoyiliga ko‘ra harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishda askarlar va harbiy xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro faol aloqa nazarda tutiladi. Yoshlar sohaga oid tanlovlar, mashqlar va harbiy rollar orqali mazkur kompetensiyalarga ega bo‘lishadi, ya‘ni yuqoridagi mashg‘ulotlar orqali interaktivlik kompetensiyalar shakllantiriladi. Yohud, jamoaviylik va liderlik tamoyiliga ko‘ra jamoada ishlash, boshqaruv vakili bo‘lish, tashkilotchilik, tashabbuskorlik ko‘nikmalari shakllantirilib, jamoaviy ishlashning ahamiyati, maqsadi va asosiy jihatlari rivojlantiriladi. Mazkur prinsiplar tadbiquida pedagogik metod va uslublar, ta‘lim vositalari va albatta tarbiya texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, simulyatsiya va treninglar, modellashtirish va rolli o‘yinlar. “Real sharoitlarga yaqin bo‘lgan simulyatsiyalar va treninglar orqali harbiy tayyorgarlik subyektlari (harbiy xodimlar, askarlarlar, chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishlari talabalari, fuqarolar va albatta harbiy chaqiruvga qadar yoshda bo‘lgan o‘quvchi va talabalar) bilan faol mashqlar olib boriladi” [2]. Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik subyektlarini shunchaki nazariy bilim emas, balki ularni amaliy hislarda tatbiq qilish, turli holat va jarayonlar orqali har xil vaziyatlarga tayyor bo‘lishlarini, turli qiyin va murakkab vaziyatlarni modellashtirishga tayyorgarligini ta‘minlaydi. Rollar o‘ynash va stress-boshqaruv jarayonida turli psixologik va stressli vaziyatlarda o‘ziga xos pedagogik modellar o‘rganiladi. Bunday pedagogik jarayonda yoshlar o‘z ish va xulq-atvorini tahlil qilish va refleksiya qilishni o‘rganibgina qolmay balki, o‘z shaxsiy va professional rivojlanishi uchun muhim poydevor yaratadi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalari shaxsning mas‘uliyatli va ommaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Harbiy madaniyat strukturasi faqat kompetentli faoliyat emas, balki axloqiy va etik me‘yorlarga ham to‘laqonli amal qilish nazarda tutiladi. Bu, o‘z navbatida, harbiy xodimlar o‘rtasidagi ishonch, mehr-oqibat, sahovat va vafo, burchga sadoqat kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Harbiy madaniyat har bir davlatning mustaqilligi, suverenitetini, xavfsizligini himoya qilish uchun yaratilgan maxsus ijtimoiy institutlar majmui sifatida, ma‘lum bir xalq madaniyati namunasini ifoda etar ekan, demak, o‘z navbatida ularning rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Madaniyat va jamiyatning harbiy madaniyati nisbatan mustaqil tizimlar bo‘lsada, ular o‘zaro ta‘sir kuchiga ega bo‘lib, bir-biri bilan aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Ammo ularning har birini aynan o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari ham mavjud bo‘lib” [4], masalan, ularda mavjud bo‘lgan semiotik va ramziy belgilarda, yashirin va ochiq shakllarida, o‘zigagini taalluqli bo‘lgan qadriyatlarida, mehnat jarayonida munosabatlarning yuqori rasmiylashtirilganligida, qat‘iy va aniq tartib-qoidalariga rioya etilishida ko‘rish mumkin.

Harbiy madaniyat turli ramzlar, belgilar va semiotik tizimlar orqali ifodalanadi. Bu belgilar harbiy an‘analar, intizom, shaxsiy va jamoaviy identifikatsiya hamda harbiy g‘oyalarni o‘zida namoyon qiladi.

Harbiy sohada semiotika muhim o‘ringa ega bo‘lib, harbiy belgilar muayyan ma‘nolarni anglatadi. Masalan, shaxsiy va guruhiy identifikatsiya – askarlar, ofitserlar va harbiy qismlarning qaysi tuzilmaga mansubligini anglatganda, intizom va ierarxiyani belgilash – harbiy lavozim va unvonlarni ramzlar orqali ko‘rsatib beradi. Shuningdek, tarixiy va madaniy merosni aks ettirish – milliy va tarixiy an‘analarni saqlashga xizmat qiladi.

Harbiy ramzlar (forma, rang, emblema, nishon, orden, medal, bayroq, gerb va h.z.) va ularning ma‘nolari ham o‘ziga xos mazmunga, shaklga va albatta maxsus vazifaga ega bo‘lib, harbiy sohaga hos bo‘lgan bir qator ma‘nolarni anglatadi. Masalan, harbiy liboslar (forma)

harbiy soha vakilining qaysi davlat, qism yoki lavozimga mansubligini bildirsa, maxsus forma sifatida kamuflyaj libos qarshi tomonni chalg'itish yohud dushman tomonidan aniqlanishni qiyinlashtirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Xuddi shuningdek, harbiy soha vakillari formalari ranglari ham muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, "ko'k rang tinchlikparvar kuchlar bilan bog'liq bo'lsa, qizil rang psixologik yondashuvdan farqli o'laroq, ko'pincha jasorat va qahramonlik ramzi hisoblanadi. Harbiy ramzlar tarkibiga qo'shin turlari va boshqa tuzilmalar uchun alohida emblemalar, harbiy xizmatchilarning xizmatlari va qahramonliklarini taqdirlash uchun beriladigan orden va medallar, muayyan g'oya va an'analarni ifoda etuvchi harbiy bo'linmalar va davlat armiyalarining tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi bayroqlarini kiritish mumkin" [5]. Albatta, harbiy ramzlar jamiyatda vatanparvarlik va millatni himoya qilishga oid qadriyatlarni mustahkamlashga, harbiy soha vakillari va fuqarolarga ma'naviy kuch berishga, ularning jamoaviy ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi. Harbiy madaniyatda semiotik va ramziy belgilar nafaqat tashqi ko'rinishni, balki ma'naviy va strategik ahamiyatga ega mazmuni ham aks ettiradi. Ular harbiy an'analarni, intizom va hurmat belgisi bo'lib, harbiy jamiyatda muhim rol o'ynaydi.

"Yangilanayotgan mustaqil O'zbekiston sharoitida harbiy madaniyat jamiyat hayotida faqatgina harbiy tashkilotlar doirasida chegaralanib qolmaydi. Harbiy madaniyat shunday narsaki, u ekstrimal sharoitda butun jamiyat madaniyatiga ta'sir qiladi". Harbiy madaniyat mamlakatning sivilizatsion rivojlanishi, milliy va harbiy jamiyat xavfsizligini, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlabgina qolmay, harbiy mahorat va jangovar malakalarni, an'analarni avloddan avlodga yetkazish, harbiy ijtimoiylikni amalga oshirishda tartibga solish, selektiv-integratsiyalash, mujassamlashtirish, birlashtirish, standartlashtirish, moslashtirish, regulyativ-epistemologik funksiyalarni bajaradi.

Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ularning pedagogik mahoratini, umuman, kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning zarur va muhim yo'nalishi sifatida belgilaniladi. Shu bilan birga, yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirish o'z yechimini kutayotgan ilmiy pedagogik muammo hisoblanadi. Ushbu jarayonni nazariy jihatdan rivojlantirish va uni amaliyotda tashkil etish, yoshlarda harbiy ko'nikmalarning mazmunini, ularning ijtimoiy pedagogik mexanizmlarini aniqlashni talab qiladi.

Qobiliyat va mahoratning psixologik mohiyatini zamonaviy psixologik nazariya belgilaydi, ularni shaxsiy-faoliyat yondashuviga mos ravishda ko'rib chiqadi. Bunda avvalo, eng chuqur darajada, qobiliyat va mahorat bevosita inson faoliyati tarkibida alohida harakat sifatida ko'rib chiqiladi. Agar faoliyatning o'zi o'zining maqsadlilik, obyektivligi va faoliyat subyektini o'zgartirish istagi bilan inson faoliyatining o'ziga xos turi sifatida harakat qilsa, unda bu faoliyatning mazmuni ongli, qisman ongli va ongsiz harakatlar, operatsiyalar yoki harakatlar majmui sifatida ifodalanishi mumkin. Ko'nikmalar insonning ongli ravishda, bilim - qoidalar asosida amalga oshiradigan harakatlaridir. Shu tarzda ko'rib chiqilgan ko'nikmalar oddiy ongsiz faoliyat harakatlarini shakllantiradi va bo'shatilgan inson faoliyatini yanada murakkab vazifalarni anglash va rejalashtirishga taqsimlashga imkon beradi. Demak, muayyan faoliyatda muammolarni hal qilishning murakkabligi va samaradorligi uning predmeti ega bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarga bog'liqdir. "Inson faoliyatining tartibga soluvchilari va usullarini, ko'nikma va odatlarni, shuningdek odatlarni o'rganadigan ikkinchi tekislikda harakat texnikasining yagona uchligida o'rganiladi va rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishning avtomatik va yarim avtomatik usullari sifatida belgilanadi. Bu darajadagi malakalar subyekt tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'zlashtirilgan harakat usuli sifatida belgilanadi". Ko'nikmalarga kelsak, ta'riflar va yondashuvlar ko'pligi bois ular haqida umumiy tushuncha yo'q, ularning subyektiv tomoni bor, ularning shakllanishida shaxsning roli juda katta. Ko'nikmalar tashqaridan "belgilangan" emas va shuning uchun ularni shakllantirish masalasi faqat o'qitish bilan hal etilmaydi. Ko'nikma va u bilan tartibga solinadigan faoliyat qanchalik murakkab bo'lsa, uni shakllantirish va rivojlantirish tizimi shunchalik murakkab bo'ladi. Ko'nikmalarni ko'rib chiqishning yana bir ko'rinishi shaxsning muayyan turdagi faoliyat yoki

harakatlarni o'zlashtirish jarayonini o'rganish bilan bog'liq. Bu yerda mahorat va mahorat psixologiyasi ilmiy soha sifatida nazariy va amaliy pedagogika bilan eng yaqin aloqada bo'lib, faoliyat mavzusini tayyorlash muammosini hal qiladi. Shunday ekan, harbiy malaka o'zlashtirilgan bilimlarning operativ shakli sifatidagi ko'nikma rivojlanishining eng yuqori darajasi va shu bilan birga, yanada murakkab ko'nikmalarni shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Kasbiy faoliyat bilan bog'liq holda, ko'nikma va qobiliyatlar kamdan-kam hollarda mustaqil hodisa sifatida tadqiq etiladi. Ko'pincha ular professionallik, kasbiy kompetentsiya va boshqalar kabi hodisalarning butunning bir qismi, strukturaning bir komponenti sifatida o'rganiladi. Kasbiy mahorat va ko'nikmalarni o'zlashtirish – kasbiy mahorat, kasbiy kompetentsiya va professionallikka asos bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda harbiy pedagogik ishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, harbiy o'qituvchining mahoratini belgilaydigan tadqiqotlar, ilmiy metodikalar ko'p emas, lekin ular shubhasiz mavjuddir. Aynan shu holat, bizningcha, hal etilayotgan muammoning ilmiy mohiyatini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yaxlit harbiy pedagogik jarayon nafaqat bo'lajak harbiy soha xodimlarini, balki yosh avlodni bo'lajak harbiy madaniy faoliyatga tayyorlash, tarbiyalash, rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shaxsga yo'naltirilgan va malakaga asoslangan harbiy madaniyatning psixologik-pedagogik asoslarini uzluksizligini ta'minlashni talab qiladi. Ta'kidlash joizki, u vazifalari va mazmuni jihatidan umumiy pedagogik faoliyatdan biroz ya'ni rejalashtirilgan natijalariga erishish va faoliyatning dinamik xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan boshqaruv sifatida pozitsiyalar, kasbiy mahorat, salohiyat darajasi, faoliyati, jihati bo'yicha farqlanadi. Ko'nikmalar asosan gnostik, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy va maxsusga, qobiliyatlar esa, bilimlarni yangi pedagogik vaziyatga o'tkazish, har qanday pedagogik vaziyatda yechim topish, yangi bilimlarni yaratish, yuzaga kelgan pedagogik muammo bilan ishlash, o'quv materialini bilan ishlash, psixologik-pedagogik bilimlardan foydalanish, kommunikativ vazifalarni, pedagogik muloqotni oqilona amalga oshirish, kasbiy pozitsiyani saqlash, o'z kasbiy rivojlanishini tashkil etish, o'quv faoliyati natijalarini baholash va nazorat qilish kabilardir. Harbiy pedagogik faoliyat subyektining malaka va ko'nikmalarini, biz belgilaganimizdek, uning ushbu faoliyatdagi o'rni va vazifalari, ularni amalga oshirishning o'ziga xos sharoitlari orqali aniqlash mumkin.

Yoshlarda harbiy madaniyat kompetentsiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari ular ong-u shuurida harbiy madaniyat konsepsiyasi, jamiyat madaniyatining harbiy jihatlari va harbiy faoliyatning madaniy tomonlarini tushunish, jamiyat a'zolarini harbiylashtirish va tarbiyalash masalalarini hal qilishda pedagogik tamoyillarga asoslanish, eng asosiysi mamlakat harbiy salohiyatini oshirishda inson kapitalidan samarali foydalanish orqali harbiy tizimni intellektual, texnologik, texnik va jismoniy jihatdan yanada takomillashtirish, sohaga innovatsiyalarni keng targ'ib qilish uchun nazariy va amaliy ko'mak beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hashimova G.I. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy madaniyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili. O'zMU. diss. avtoref. 2022.
2. Inoyatov I.Yu., Abduqodirov A.S. O'zbekiston: davlat va armiya,– Toshkent: TVOKU. 2006. – B 190.
3. Jurayev B. X. HARBIY MADANIYATNING TARKIBIY QISMLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. // Transformation of the Social Landscape and Social Structures of the Modern World. April 20, 2024 – B.205.
4. Abdurahmonov M, Rahmonov N. Madaniyatshunoslik. –Toshkent.: O'zMU, 2014. – B.6.
5. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi. – Toshkent.: "O'zbekiston", 1996. – B.2.